

**“TASDIQLAYMAN”**



**O‘zbekiston Respublikasi  
Davlat aktivlarini boshqarish  
agentligi direktori o‘rinbosari**

**A.Miraliyev**

2025-yil \_\_\_\_ sentabr

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, Farmoyish va  
topshiriqlari xamda Hukumat hujjatlarida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan  
keng jamoatchilikka hisobot berish  
TARTIBI**

1. Ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-117-sonli Farmonining 7.b.-bandiga muvofiq Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi (keyingi o‘rinlarda – “Ijro.gov.uz” tizimi) orqali Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari xamda Hukumat hujjatlaridagi (keyingi o‘rinlarda – qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar) berilgan topshiriqlar ijro holati yuzasidan keng jamoatchilikka hisobot berish tartibini belgilaydi.

2. Tartibning maqsadi – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida olib borilayotgan islohotlarni keng jamoatchilikka yetkazish, soha faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdan mustahkamlashdan iborat.

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Axborot xizmati bo‘limi amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha keng jamoatchilikka hisobot beradi.

4. Hisobotlar Davlat aktivlarini boshqarish agentligi rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoq sahifalarida tahliliy post, statistikaga asoslangan infografika va video intervyu ko‘rinishlarida jamoatchilikka taqdim etilishi mumkin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari ijrosi holati bo‘yicha keng jamoatchilikka hisobot berishga mas’ullar:

Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi topshiriqlar ijrosi yuzasidan hisobotlarni tayyorlashga mas’ul hisoblanadi.

Axborot xizmati bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari ijrosi holati bo‘yicha hisobotlarni tahlil qilgan holda keng jamoatchilikka hisobot berish maqsadida Davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yetkazish uchun mas’ul hisoblanadi.

6. Taqdim o‘tib boriladigan hisobotlar yuzasidan jamoatchilik vakillari xamda faol fuqarolar ishtirok etishlari mumkin.

Fuqarolarning savol va takliflari Davlat aktivlarini boshqarish agentligining [info@davaktiv.uz](mailto:info@davaktiv.uz) elektron pochta va 1082 qisqa raqamli Ca11-markazi orqali qabul qilinadi.

Jamoatchilikdan kelib tushgan taklif va e'tirozlar tahlil qilinib, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi rahbariyatiga hisobotga kiritiladi.

7. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi markaziy apparat, agentlik tasarrufidagi tashkilotlar xamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining, viloyatlar va Toshkent shahar davlat aktivlarini boshqarish boshqarmalari qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlashda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga, shuningdek, topshiriqlarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni oz vaqtida, toliq va sifatli taqdim etilishi, shuningdek, "Ijro.gov.uz" tizimida ishlaganda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun javobgar hisoblanadi.

8. Ushbu tartib talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar buladilar.

9. Ushbu tartib tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

10. Tartibning ijrosi uchun Axborot xizmati bo'limi mas'ul hisoblanadi.

**Ijro intizomi nazorati va murojaatlar  
bilan ishlash bo'limi boshlig'i**

 **A. Sayfulloyev**

**Axborot xizmati bo'limi**

 **Y. Erkaboyeva**